

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

**SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTINING EVOLYUTSIYASI: ASOSIY BOSQICHLARI VA INSTITUTSIONAL RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI***Raxmatulla Nurimbetov**Mustaqil tadqiqotchi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Shanxay hamkorlik tashkiloti, Shanxay beshligi, xalqaro tashkilot, mintaqaviy tashkilot, xalqaro tashkilotlarning ishchi organlari, SHHT Kotibiyati va Mintaqaviy aksilterrorchilik markazi, SHHT sammitlari.

Annotatsiya: Maqolada Shanxay hamkorlik tashkiloti shakllanishining asosiy bosqichlari, institutsional qurilish jarayonlari va o'ziga xos xususiyatlari, bu borada qabul qilingan huquqiy hujjatlar, SHHTning xalqaro hamkorligining rivojlanishi, shu jumladan, Birlashgan millatlar tashkilotida kuzatuvchi tashkilot maqomini olish va buning siyosiy-huquqiy ahamiyati, shuningdek, tashkilotning institutsional asoslarini takomillashtirish istiqbollari ko'rib chiqilgan.

SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION EVOLUTION: MAIN STAGES AND FEATURES OF INSTITUTIONAL DEVELOPMENT*Rakhmatulla Nurimbetov**Independent researcher**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: The Shanghai Cooperation Organization, international organization, regional organization, institutions of international organizations, the Secretariat and the RATS of the SCO, summits.

Abstract: The article examines the main stages of the evolution of the Shanghai Cooperation Organization, the main aspects of its institutional construction as well as the judicial regulations of the SCO, the development of international cooperation of the SCO, including the political and legal significance of its observer status at the UN General Assembly. Along with this, underlined that the future development of the SCO will largely depend on the success of its reform agenda.

ЭВОЛЮЦИЯ ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА: ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ И ОСОБЕННОСТИ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Рахматуллу Нуриббетов

Независимый исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

Шанхайская организация сотрудничества, Шанхайская пятерка, международная организация, региональная организация, рабочие органы международных организаций, Секретариат и РАТС ШОС, саммиты.

Аннотация: В статье рассматриваются основные этапы формирования Шанхайской организации сотрудничества, особенности процессов и нормативных актов, регулирующих её институциональное строительство, развитие международного сотрудничества ШОС, в том числе политико-правовое значение её статуса наблюдателя при Генеральной Ассамблеи ООН. В ней отмечается, что перспективы развития ШОС во многом будут зависеть от успешности совершенствования и модернизации деятельности Организации.

KIRISH

Shanxay hamkorlik tashkilotining evolyutsiyasi: muloqot mexanizmidan to'laqonli tashkilot sari

Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda hamkorlikning muvaffaqiyati ko'p jihatda ularning ichki qoidalari, a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy va institutsional mexanizmlarning qay darajada puxta ishlab chiqilganligi va ularning amaliy samaradorligi bilan belgilanadi.¹

Dastlab “ad hoc” diplomatiya² shaklida faoliyat boshlagan, doimiy va barqaror ishchi organlarga ega bo'lmagan “Shanxay beshligi”ning to'laqonli tashkilotga aylanishi, o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hayotga tadbiq etish uchun, albatta, uning huquqiy asoslari va institutlarini shakllantirish ilk yillarda SHHT oldida turgan eng asosiy vazifa edi. Buni 2001-yil 15-iyunda Shanxay shahrida (XXR) bo'lib o'tgan tashkilotning ilk Sammitida qabul qilingan “Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to'g'risidagi Deklaratsiya” matnida ko'rish mumkin.³

Tashkilotning ilk ishchi organi – bu SHHTga a'zo davlatlar milliy koordinatorlari Kengashi bo'lgan bo'lib, “Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to'g'risidagi Deklaratsiya”da o'z aksini topgan edi. Kengash zimmasiga mazkur Deklaratsiya va “Shanxay beshligi” doirasida davlat rahbarlari tomonidan qabul qilingan hujjatlar asosida “Shanxay hamkorlik tashkiloti Xartiyasi” sini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.⁴ Shu davrdan e'tiboran milliy koordinator Kengashi SHHT doirasida barcha hamkorlik masalalarini muvofiqlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, tashkilotning boshqa ishchi organlarini tuzishda asosiy rol o'ynab kelmoqda.

¹ Judith Kelley. The Role of Membership Rules in Regional Organizations. ADB Working Paper Series on Regional Economic Integration No. 53 | June 2010. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/28527/wp53-membership-rules.pdf>

² “ad hoc” diplomatiya – muayyan masalalar yuzasidan tuziladigan maxsus diplomatik missiyalar.

³ Deklaratsiya o'z sozdani SHOS (15.06.2001 g.). <http://docs.cntd.ru/document/901829581>

⁴ Shanxay hamkorlik tashkiloti Xartiyasi (2002-yil 7-iyun, Sankt-Peterburg shahri) <https://lex.uz/docs/2055981>

SHHT rivojlanishining *boshlang'ich davri* (2001-2004-yillar) o'zaro hamkorlikning yangi formatlarini ishga tushirish bilan bog'liq bo'lgan. Bu davr ichida davlat rahbarlari uchrashuvlaridan tashqari SHHTga a'zo davlatlar tashqi ishlar, mudofaa, favqulodda vaziyatlar, iqtisodiyot, transport, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash vazirlari, huquq-tartibot idoralari, Oliy va hakamlik sudlari rahbarlari, Bosh prokurorlari va milliy koordinatorlarining muntazam uchrashuvlarini o'tkazib borish haqida qaror qabul qilindi.

Xususan, 2001-yil 14-sentyabrda Olmaota shahrida (Qozog'iston) olti nafat ta'sischi davlatlar hukumat rahbarlarining (Bosh vazirlarining) birinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi va uning yakuni bo'yicha SHHT doirasida hukumat rahbarlarining muntazam uchrashuvlar o'tkazish mexanizmini rasman mustahkamlovchi "SHHTga a'zo-davlatlar hukumatlari o'rtasida mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning asosiy maqsad va yo'nalishlari hamda savdo va investitsiya sohasida qulay sharoitlar yaratish bo'yicha jarayonni boshlash haqida Memorandum" imzolandi.⁵

2002-yil 7-iyunda Sankt-Peterburgda (Rossiya) SHHTga a'zo davlatlar rahbarlarining ikkinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi va unda hamkorlikning maqsad, tamoyil va asosiy yo'nalishlarini o'zida aks ettiruvchi SHHT Xartiyasi imzolandi. Xartiyada tashkilotning asosiy ishchi organlari sifatida quyidagilar belgilab qo'yildi:

- Davlat rahbarlari Kengashi;
- Hukumat rahbarlari (Bosh vazirlar) Kengashi;
- Tashqi ishlar vazirlari Kengashi;
- Vazirliklar va (yoki) idoralar rahbarlari Kengashi;
- Milliy koordinatorlar Kengashi;
- Mintaqaviy aksilterrorchilik tashkiloti;
- Kotibiyat.⁶

2003-yil 29-mayda Moskvada bo'lib o'tgan tashkilotning uchinchi Sammitida davlat rahbarlari SHHTning ichki mexanizmlari ishlashini tartibga soluvchi bir qator qoida va qarorlar qabul qilishdi va SHHT Ijroiya qo'mitasi raisi (keyinchalik Bosh kotib etib qayta nomlandi⁷) lavozimini joriy etildi. 2004-yil 15-yanvarda Pekin shahrida SHHT Ijroiya qo'mitasining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Kotibiyatning ta'sis etilishi SHHTning tashkilot sifatida shakllanish davrining, ya'ni birinchi bosqichining yakunlanganini va navbatdagi, *ikkinchi bosqich* boshlanganini anglatardi. Endilikda kun tartibida SHHTning to'la huquqli xalqaro mintaqaviy tashkilot sifatida e'tirof etilishi masalasi turar edi.

BMT Ustavida ancha vaqtgacha mintaqaviy tashkilotning aniq ta'rifi mavjud bo'lmagan. 1945-yil San-Fransisko konfrensiyasida Misr delegatsiyasi "muayyan geografik hududda yaqin qo'shnichilik, manfaatlar o'xshashligi, ma'naviy mushtaraklik, madaniy, til va tarixiy yaqinlikka asoslangan va barcha munozaralarni tinch yo'l bilan hal etish..., shuningdek, o'z manfaatlarini himoya qilish hamda iqtisodiy va madaniy aloqalar bo'yicha o'zaro majburiyatlarni o'z bo'yniga olgan bir necha mamlakatlarning doimiy guruhlariga birlashishi"ni mintaqaviy tashkilot deb atash

⁵ Меморандум между правительствами государств-участников Шанхайской организации сотрудничества об основных селях и направлениях регионального экономического сотрудничества и запуске процесса по созданию благоприятных условий в области торговли и инвестиций (г. Алматы, 14-сентября 2001 года). http://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=3861

⁶ Декларация о создании SHOS (15.06.2001 г.). <http://docs.cntd.ru/document/901829581>

⁶Shanxay hamkorlik tashkiloti Xartiyasi (2002-yil 7-iyun, Sankt-Peterburg shahri) <https://lex.uz/docs/2055981>

⁷ Shunga asosan 20 yilda o'zgartirildi

taklifini bergan. Biroq mazkur ta'rif o'zida ko'plab "cheklov"larni qamrab olganligi sababli rad etilgan.⁸

1992-yilda BMT Bosh kotibi Butros Butros-G'oliy ancha keng va qayishqoq ta'rif taklif qildi. Unga ko'ra, "bahamjihat himoya va mudofaa uchun, mintaqaviy rivojlanish yoki muayyan iqtisodiy masalalarda o'zaro hamkorlik maqsadida, shuningdek, joriy xatarlar tufayli maxsus siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy vazifalarni hal etish uchun tuzilgan guruhlar mintaqaviy tashkilot deb hisoblanadi."⁹

SHHT sobiq BMT Bosh kotibi keltirgan mezonlarning barchasiga to'la mos keladi.

*Birinchi*dan, SHHT o'z Xartiyasi va uning doirasida qabul qilingan boshqa xalqaro shartnomalarda yozilgan maqsad va tamoyillarni hurmat qilish majburiyatini oluvchi mintaqadagi boshqa davlatlarning tashkilotga qo'shilishi uchun ochiqdir. Bundan tashqari, SHHT mintaqadagi tinchlik va barqarorlikni qo'llab-quvvatlash hamda uning iqtisodiy taraqqiyotini rag'batlantirishni o'zining bosh vazifasi sifatida ko'radi. SHHT a'zolari o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ta'lim, energetika, kommunikatsiya, ekologiya va boshqa sohalarida samarali hamkorlikka ko'maklashish, mintaqaviy tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda bahamjihat say'-harakat qilish majburiyatini oladi.¹⁰

SHHT Xartiyasi BMT tamoyillariga ham mos keladi. Misol uchun, uning 2-moddasida qayd etilganidek, "SHHTga a'zo davlatlar suverenitetni, mustaqillik va hududiy yaxlitlikni o'zaro hurmat qilish, chegaralar o'zgarmasligi, hujum qilmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaradosh hududlarda harbiy ustunlikdan voz kechish, barcha a'zo davlatlarning tengligi, o'zaro tushunish va bir-birining fikrini hurmat qilish asnosida umumiy pozitsiyalarni izlash tamoyillariga rioya qiladi".

Tuzilmaviy jihatdan SHHT keng qamrovli hukumatlararo xalqaro tashkilotning yaqqol namunasidir. SHHT tarkibiga asosiy to'rtta Kengash kiradi: Davlat rahbarlari Kengashi, Hukumat rahbarlari Kengashi, Tashqi ishlar vazirlari Kengashi va Milliy koordinatorlar Kengashi. SHHTda ikkita doimiy faoliyat yurituvchi organ – Kotibiyat va Mintaqaviy aksilterror tuzilmasining Ijroiya qo'mitasi mavjud. Ularda har bir a'zo davlatdan vakillar xalqaro tashkilot xodimlari sifatida faoliyat yuritishadi.¹¹

Mazkur organlarning vazifa va majburiyatlari Davlat rahbarlari Kengashining tegishli qarorlari orqali belgilanadi va ular SHHT Xartiyasiga qo'shimcha bayonnomalar orqali shakllantiriladigan tashkilotning yangi organlarini tuzish bo'yicha qarorlar ham qabul qilishi mumkin.¹²

Davlat rahbarlari Kengashi qarorlar qabul qilish uchun eng yuqori organ hisoblanadi. U davlat nomiga ko'ra rus alifbosi tartibida SHHTga a'zo davlatlarda har yili navbatma-navbat

8 Norman J. Padelford. Regional Organization and the United Nations. International Organization. University of Wisconsin Press. Vol. 8, No. 2 (May, 1954), pp. 203-216

9 Anja Jetschke, Sören Münch, Patrick Theiner. The Comparative Regional Organizations Project: Generating a New Dataset. Concept Paper.

https://www.researchgate.net/publication/308886675_The_Comparative_Regional_Organizations_Project_Generating_a_New_Dataset

10 Qarang: Декларация о создании Шанхайской организации сотрудничества.

http://old.economy.gov.ru/minec/activity/sections/foreignEconomicActivity/economic_organization/shs/20178

11 SHHT Xartiyasi, 4, 18-moddalar.

12 SHHT Xartiyasi, 2, 3-moddalar.

o'tkaziladigan sammitlarga yig'iladi. Davlat rahbarlari Kengashi sammitiga mezbonlik qilayotgan mamlakat tashkilotga har yili o'zgaradigan rotatsiya tartibida raislik qiladi. Kengash tashkilot faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini va asosiy sohalarini belgilab berish uchun mas'ul; ichkiy tashkiliy, faoliyat yuritish hamda boshqa davlat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishning asosiy masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi, shuningdek, eng dolzarb xalqaro masalalarni muhokama qiladi (SHHT Xartiyasining 5-moddasi).

Ahamiyati jihatidan Hukumat rahbarlari Kengashi ikkinchi organ hisoblanib, u SHHT byudjetini tasdiqlaydi, tashkilot doirasida iqtisodiyot va hamkorlikning boshqa sohalaridagi prinsipial masalalarni aniqlaydi. Kengash, shuningdek, bir yilda kamida bir marta yig'iladi; ushbu uchrashuv qaysi davlat hududida o'tkazilayotgan bo'lsa, o'sha davlatning hukumat rahbari raislik qiladi. (SHHT Xartiyasi, 6-modda).

Tashqi ishlar vazirlari Kengashi Tashkilotning kundalik faoliyati masalalarini ko'rib chiqadi. Davlat rahbarlari Kengashining uchrashuvlarini tayyorlash bilan shug'ulanadi, tashkilot doirasida xalqaro masalalar bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazadi. Kengash SHHT nomidan bayonot berishi mumkin. Kengashning ishlash tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq Tashqi ishlar vazirlari Kengashi raisi tashkilotni xalqaro anjumanlardagi vakili sifatida qatnashadi.¹³

Milliy koordinatorlar Kengashi shunday mexanizm hisoblanadiki, u orqali SHHT doirasida barcha qatnashuvchilarning hamkorligini muvofiqlashtirish amalga oshiriladi. Mazkur Kengash tashkilotning kundalik faoliyatini boshqaruvchi organ hisoblanib, davlat, hukumat rahbarlari va tashqi ishlar vazirlari Kengashlarining uchrashuvlari uchun ma'lumotlar tayyorlaydi. Milliy koordinatorlar har bir a'zo davlat tomonidan ichki qoida va tartiblarga binoan tayinlanadi. Odatda, bu lavozimga tajribali, har tomonlama tayyorlangan yuqori malakali diplomatlar tayinlanadi.¹⁴ Milliy koordinatorlar Kengashi bir yilda kamida uch marta yig'ilishi shart. Unda SHHTda raislik qilayotgan davlatning milliy koordinatori raislik qiladi. Milliy koordinatorlar Kengashining raisi Tashqi ishlar vazirlari Kengashining raisi ko'rsatmasiga binoan tashqi muloqotlarni amalga oshirishda Tashkilotni tamsil qilishi mumkin. (SHHT Xartiyasi, 9-modda).

Yuqorida qayd etilganidek, SHHTning ikkitida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organi mavjud, ular Kotibiyat va Mintaqaviy aksilterror tuzilmasidir.

Kotibiyat SHHTning doimiy faoliyat yuritadigan ijro organi hisoblanib, uning qarorgoht Xitoy poytaxti Pekinda joylashgan. Kotibiyatga tashqi ishlar vazirlari Kengashining tavsiyasiga ko'ra davlat rahbarlari Kengashi tomonidan tayinlanadigan Bosh kotib rahbarlik qiladi. Kotibiyat xodimlari a'zo davlatlar fuqarolari orasidan kvota asosida tanlab olinadi. Bosh kotib 3 yil muddatga qayta tayinlanish huquqisiz navbati bilan a'zo davlatlar vakillari orasidan davlat nomiga ko'ra rus alifbosi tartibida tayinlanadi.

Kotibiyatning asosiy vazifalari sifatida SHHT faoliyatining tashkiliy va texnik qo'llab-quvvatlanishi ta'minlash, tashkilotning yillik byudjeti uchun takliflar, ishchi organlar uchun

¹³Положение о Совете министров иностранных дел государств - членов Шанхайской организации сотрудничества. Утверждено Решением глав государств -членов Шанхайской организации сотрудничества от 29-мая 2003 года. <http://docs.cntd.ru/document/901880662>

¹⁴ Qarang: R.Alimov. Шанхайская организация сотрудничества: становление, развитие, перспективы. 2017 г. М.: Издательство «Вест Мир» 336 с.

tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va shu kabi vazifalar belgilangan. Kotibiyat tarkibiga Bosh kotibning o'rinbosarlari va yordamchisi kiradi.¹⁵

SHHT tarkibida 2001-yil 15-iyunda terrorism, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish maqsadida tuzilgan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritadi. Ushbu doimiy faoliyat yurituvchi organning bosh qarorgohi Toshkentda joylashgan. Uning asosiy vazifa, funksiyalari, tashkillashtirish va moliyalashtirishning tamoyillari a'zo davlatlar o'rtasida tuzilgan alohida xalqaro shartnoma bilan tartibga solinadi.¹⁶ MATT Kengash va Ijroiya qo'mitasidan tashkil topgan. Kengash qaror qabul qiluvchi asosiy organ hisoblanib, uning tarkibiga SHHTga a'zo davlatlarning maxsus idoralarining yuqori martabali vakillari kiradi. MATT Ijroiya qo'mitasi direktori davlat rahbarlari Kengashi tomonidan tayinlanadi. Odatda bu lavozimni xavfsizlik idoralarida katta faoliyat tajribasiga ega yuqori martabali shaxslar tayinlanadi.

SHHTning mintaqaviy tashqilot sifatida institutsionallasuvi uchun uning xalqaro maydondagi nufuzini shakllantirish ham muhim masala bo'lgan. 2004-yil fevralida XXRning BMTdagi Doimiy vakili Van Guan'ya tashkilot nomidan Bosh Assambleyaning (BA) 59-sessiyasi "Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga BMT BA kuzatuvchisi maqomini berish haqida"gi bandni qo'shish to'g'risidagi bayonot bilan murojaat etdi. Ushbu bayonotga SHHT Bosh kotibning tashkilot nomidan kuzatuvchi maqomi so'ralgan murojaat xati ham ilova qilingan. BMT BA tomonidan 2004-yil 2-dekabrda 59/48 rezolyutsiyada ma'qullangan.¹⁷

Shunday qilib, SHHT o'zining bir necha yillik rivojlanish davri mobaynida "Shanxay beshligi" davlatlari rahbarlarining norasmiy klubidan faoliyati BMT Ustaviga hamohang tushuvchi mintaqaviy tashkilotga aylandi. SHHT unga BMT Bosh Assambleyasining kuzatuvchisi maqomi berilganidan so'ng to'la-to'kis xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi.

Xalqaro tashkilotlar tajribasidan ma'lumki, mintaqaviy tashkilotning ta'sis hujjatida unga a'zo bo'lish shartlari belgilanadi. Xalqaro tashkilot yangi a'zolari qabul qilishga yo ochiq, yoki yopiq bo'lishi mumkin.

SHHT Xartiyasining maqsad va tamoyillariga rioya qilish, shuningdek, tashkilot doirasida qabul qilingan boshqa xalqaro shartnomalarning nizomlariga muvofiq harakat qilish majburiyatini oladigan mintaqaning boshqa davlatlari uchun unga a'zo bo'lishga ochiq (SHHT Xartiyasi, 13-modda). "Mintaqa" sifatida Xartiya a'soschilari, aavalo, Markaziy Osiyoni ko'zda tutiladi. SHHT rivojlanib borishi bilan, "mintaqa" tushunchasi SHHT "makoni" tushunchasi bilan almashib borganligini ko'rish mumkin.

Har qanday holatda ham SHHTda yangi a'zolari qabul qilishning o'z mexanizmi mavjud bo'lib, unga ko'ra a'zolikka qiziqish bildirgan davlat Tashqi ishlar vazirlari Kengashining amaldagi raisiga rasmiy murojaat yo'llashi mumkin. Shundan keyin davlat rahbarlari Kengashining qaroriga binoan va tashqi ishlar vazirlari Kengashining taqdimnomasi asosida ushbu davlat Tashkilotga a'zo sifatida qabul qilinishi mumkin. Albatta, a'zolikka nomzodning SHHTdagi hamkorlik salohiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi va doimiy a'zo bo'lgan davlatlar bilan ikki tomonlama munosabatlari va shu kabi ko'plab omillarni chuqur o'rganuvchi jarayon. Buni shu kunga qadar SHHT faqat 2ta davlatni – Pokiston va Hindistonni 2017-yil qabul qilgan

¹⁵ Положение о Секретариате Шанхайской организации сотрудничества. Утверждено Решением глав государств-членов Шанхайской организации сотрудничества от 29-мая 2003 года. <http://docs.cntd.ru/document/901880661>

¹⁶ Соглашение между государствами-членами Шанхайской организации сотрудничества о Региональной антитеррористической структуре. Санкт-Петербург, 7 июня 2002 года. <https://www.lex.uz/acts/2067679>

¹⁷ Гришкевич О.В. Шанхайская организация сотрудничества как региональная международная организация. Вестник Института законодательства Республики Казахстан. №4 (2018). С.114-118.

va bu jarayon ancha davom etgan, tashkilot a'zolari ichida yagona to'tamga kelish ancha mushkul kechganligi ma'lum.

SHHT Xartiyasida tashkilotning har qanday a'zosining undan chiqish huquqi belgilab qo'yilgan. Chiqish a'zolikni to'liq to'xtatishni ko'zda tutadi; a'zolikni qisman to'xtatishga yo'l qo'yilmaydi. Tashkilotdan chiqish shartlari ham shu joyning o'zida yozib qo'yilgan. Bular: *birinchidan*, tashkilotni tark etishga qiziqish bildirgan davlat bu haqda chiqish sanasidan 12 oydan kechiktirmasdan depozitariyga (ya'ni Kotibiyatga) rasmiy xabarnoma jo'natishi shart. Ushbu shartning bajarilishi xalqaro shartnomalar to'g'risidagi Vena konvensiyasiga binoan majburiy hisoblanadi; *ikkinchidan*, davlatning SHHTga a'zoligi natijasida yuzaga kelgan majburiyatlari ushbu mamlakatni, toki ular oxirigacha bajarilmaguncha, SHHT bilan bog'lab turadi (SHHT Xartiyasi 13 – moddasi).

2002-yil noyabrda SHHT Tashqi ishlar vazirlari Kengashi "SHHTning xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarining muvaqqat sxemasini" qabul qildi va shu bilan tashkilotning tashqi hamkorlar bilan munosabatlarini shakllantirishni boshladi.¹⁸. Hujjatda ko'rsatilishicha, boshqa davlat va xalqaro tashkilotlar tashqi ishlar vazirlari Kengashining uchrashuvlariga yoki diplomatik maslahatlashuvlarga mehmon sifatida taklif etilishi mumkin, SHHT esa o'z vakillarini boshqa xalqaro tashkilotlarning tadbirlariga yuborishi mumkin.

Ta'ris hujjatlariga muvofiq, SHHT biror bir davlat yoki xalqaro tashkilotga muloqot bo'yicha sherik yoki kuzatuvchi maqomini berishi mumkin. Ushbu maqomlarni berish tartib va qoidalari a'zo davlatlar o'rtasidagi maxsus bitim bilan belgilanadi. 2004-yil 17-iyunda SHHT davlat rahbarlari Kengashi tomonidan "SHHTga kuzatuvchi maqomini berish tartibi" tasdiqlandi, 2008-yil 28-avgustda esa "SHHTning muloqot bo'yicha sherigi maqomi to'g'risidagi Nizom" qabul qilindi. SHHTga kuzatuvchi maqomi SHHTning muloqot bo'yicha sherigi va a'zosi o'rtasidagi oraliq davr hisoblanadi.

Kuzatuvchi maqomini olgan davlat yoki tashkilot davlat va hukumat rahbarlari Kengashining ochiq uchrashuvlariga taklif qilinishi mumkin; Tashqi ishlar vazirlari Kengashining uchrashuvlarida va SHHTga a'zo davlatlar vazirlik va idoralari rahbarlarining konferensiyalarida qatnashish huquqiga ega; Tashkilot organlarining majlislarida ovoz berish huquqisiz va Raisning oldindan roziligiga ko'ra ishtirok etishi mumkin; o'zlariga tegishli SHHT doirasidagi masalalar bo'yicha SHHTning ishchi tillarida Bosh kotibga taqdim qilish yo'li bilan yozma bayonot bilan chiqishi mumkin; agar Tashkilotning tegishli organlari tomonidan ta'qiq qo'yilmagan bo'lsa, ularga ham SHHTning Xartiyasida ko'rsatilgan hujjatlari va qarorlari bilan tanishishga ruxsat etiladi. Kuzatuvchi maqomi hujjatlarni tayyorlash va imzolashda qatnashish huquqini bermaydi. Kuzatuvchi qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etmaydi va ularning bajarilishi mas'uliyatini zimmasiga olmaydi.

Demak, SHHT organlari faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy-normativ baza to'liq shakllantirilgan va ularning to'laqonli faoliyat ko'rsata boshlashi bilan tashkilotda muhim institutsional shakllanish bosqichi yakunlandi, deyish mumkin.

2009-yildan hozirgi vaqtga qadar bo'lgan paytni tashkilotning o'sish va kengayish davri, ya'ni *uchinchi bosqichi* sifatida ko'rish mumkin. O'sha yili Rossiyaning Yekaterinburg shahrida bo'lib o'tgan sammitda a'zo davlatlar rahbarlari Shri-Lanka va Belorussiyaga muloqot bo'yicha

¹⁸ ВРЕМЕННАЯ СХЕМА взаимоотношений Шанхайской организации сотрудничества с другими международными организациями и государствами. Утверждения Решением СМВД ШОС от 23 ноября 2002г., Москва. <http://docs.cntd.ru/document/901881001>

sherik maqomini berish haqida qaror qabul qilishdi, shuningdek Afg'onistonga kuzatuvchi, Turkiyaga esa – muloqot bo'yicha sherik maqomini berishdi.¹⁹

SHHT xalqaro nufuzining ortib borishi natijasida u bilan yaqin hamkorlik qilishga qiziqish ham muayyan davlatlar o'rtasida ortib bordi. Bu tashkilotning doimiy a'zolari tomonidan SHHTning kelajakda kengayishiga tegishli tartibda tayyorgarlik ko'rish zaruritarini keltirib chiqarganligi aniy. Shu sabab SHHTning kengayishidan oldin qonunchilik bazasini takomillashtirish va tashkilotning o'sish mexanizmini ishlab chiqish bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirildi.

2010-yil Toshkentdagi sammitda SHHTga qo'shilish va to'laqonli a'zolikka da'vogarlik qilayotgan mamlakatning mos kelishi lozim bo'lgan minimal mezonlari to'plami aniqlandi va belgilandi. Ushbu tartibga ko'ra, a'zolikka nomzod mamlakat Yevroosiyo mintaqasida joylashgan, SHHTga kuzatuvchi yoki sherik maqomiga ega bo'lishi, tashkilotning amaldagi barcha a'zolari bilan diplomatik aloqalar hamda jadal iqtisodiy va gumanitar munosabatlarning mavjudligi; BMT sansiyalarining obyekt bo'lmasligi va boshqa davlat bilan harbiy mojaro holatida bo'lmasligi kerak.²⁰

O'z navbtida, 2014-yilgi Dushanbe sammitida tashkilotga yangi a'zolari qabul qilish uchun huquqiy, ma'muriy va moliyaviy shart-sharoitlarni shakllantirishni yakunlovchi qaror qabul qilindi.

Tashkilotning kengayishi uchun katta qadam 2015-yil iyulida Ufadagi (Rossiya) sammitda tashlandi. Unda Hindiston va Pokistonni SHHTga to'la huquqli a'zo sifatida qabul qilish jarayonining boshlanganligi haqida e'lon qilindi. Bundan tashqari, Afg'oniston, Eron va Mongoliyaga qo'shib, Belorussiya ham kuzatuvchi maqomini oldi, Ozarbayjon, Armaniston, Kambodja va Nepal esa yangi "muloqot bo'yicha sherik" bo'lishdi.²¹

2016-yil Toshkent Sammitida esa Hindiston va Pokiston bilan ushbu mamlakatlarning SHHTga to'liq huquqli a'zo davlatlar sifatida qabul qilish majburiyatlarini belgilovchi Memorandumlar imzolandi.²²

Shanxay hamkorlik tashkilotining evolyutsiyasida yangi, *to'rtinchi bosqich* tashkilotning 16-sentyabr kuni Samarqand shahrida sammitda boshlandi, deyish mumkin. Unda qator muhim hujjatlar qatorida (jami 44ta hujjat) davlat rahbarlari, birinchidan SHHTning yanada kengayishi uchun muhim bo'lgan quyidagi qarorlarini qabul qildi:

- Eronning SHHTga a'zo davlat maqomini olish uchun majburiyatlari to'g'risidagi memorandum imzolanganini to'g'risida;
- Belarus Respublikasini SHHT a'ziligiga qabul qilish jarayonini boshlash to'g'risida;
- Maldiv Respublikasi, Bahrayn, Birlashgan Arab Amirliklari, Myanma Ittifoqi Respublikasi, Quvayt Davlatiga SHHTning muloqot bo'yicha sherik maqomini berish to'g'risida.²³

Ikkinchidan, Samarkand sammitida "Shanxay hamkorlik tashkilotini takomillashtirish to'g'risida"gi juda muhim qaror qabul qilindi. Bu tashkilot tarixida ilk bor uning faoliyatini, huquqiy va institsional asoslarni modernizatsiya qilishni nazarda tutuvchi huquqiy hujjat qabul

¹⁹ Совместное коммюнике по итогам заседания Совета глав государств-членов ШОС.2009-06-17.

// https://www.fmprc.gov.cn/rus/wjdt/gb/200906/t20090618_858179.html

²⁰ O'sha joyda.

²¹ Уфимская декларация глав государств-членов ШОС. 9-10.06.2015г. // <http://sco-russia.ru/documents/>

²² Ташкентская декларация пятнадцатилетия Шанхайской организации сотрудничества.24.06.2016 // <https://rus.sectsc.org/documents/?year=2016>

²³ Samarqand sammiti yakunida salmoqli hujjatlar to'plami imzolandi. 6-sentyabr 2022 // <https://yuz.uz/news/samarqand-sammiti-yakunida-salmoqli-hujjatlar-toplami-imzolandi>

qilindi. Unga muvofiq, SHHT Tashqi ishlar vazirlari Kengashiga tashkilot faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. SHHT Bosh kotibining ma'lumotiga ko'ra, hozirda tashkilotga a'zo davlatlar ushbu masala ustidan faol ish olib borishmoqda.²⁴ Bizningcha, Samarqand sammitida boshlangan bu bosqichni *Shanxay hamkorlik tashkilotini takomillashtirish bosqichi* deb ta'riflashga to'liq asos mavjud.

2023-yil Hindiston raisligida videoanjuman shaklida o'tkazilgan SHHT sammitida Eron Islom Respublikasi rasman 9-a'zo davlat sifatida qabul qilindi.²⁵ 2024-yil iyulida Qozog'istonning Ostona shahrida o'tkaziladigan sammit doirasida SHHTning 10-a'zosi sifatida Belarus Respublikasining rasman qabul qilinishi kutilmoqda.²⁶

Xulosa qilib aytish mumkinki, a'zo davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi tafovutlarga qaramasdan, SHHT nisbatan qisqa fursat ichida katta evolyutsion taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Tashkilotning bu davr ichida mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi roli va ta'sirining sezilarli oshishida nafaqat unga a'zo mamlakatlarning diplomatik yutuqlari, balki institutsional va huquqiy bazasining ko'p jihatdan puxta ishlab chiqilganligi va amaliyotga tadbiq etilganligi bilan ham belgilanadi,

To'g'ri, vaqt o'tishi bilan, xalqaro munosabatlardagi shiddatli o'zgarishlar, shuningdek tashkilot tarkibiga Hindiston va Pokistonning, keyinchalik Eronning va kutilayotgan Belarusning doimiy a'zo bo'lib kirishidan keyin, tabiiyki SHHTda institutsional va uning faoliyatini tartibga soluvchi normativ bazada ayrim kamchilik mavjud ekanligi, ularni zamon talablariga moslashtirish zarurati namoyon bo'lmoqda.

Fikrimizcha, Samarqand sammitida qabul qilingan SHHTni takomillashtirish to'g'risida qabul qilingan qaror doirasida uning faoliyatini qanchalik samarali va unumli modernizatsiya qilish istiqbollariga kelgusidan tashkilotning qaysi taraqqiyot yo'lidan borishi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

²⁴ Генсек ШОС Чжан Мин: расширение организатсии – естественный процесс развития // <https://e-cis.info/news/566/117508/>

²⁵ Iran becomes full member of Shanghai Cooperation Organisation. July 4, 2023 <https://www.middleeastmonitor.com/20230704-iran-becomes-full-member-of-shanghai-cooperation-organisation/>

²⁶ Лавров: после саммита в Астане Беларусь станет членом ШОС. 21.05.2024 //

<https://sputnik.by/20240521/lavrov-posle-sammitya-v-astane-belarus-stanet-chlenom-shos-1086388190.html>